

O‘ZBEKISTONDA ARAB TILINI O‘QITISH VA O‘RGANISHNING DOLZARB MASALALARI

Hashem Ismael,

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti v.b., PhD

Annotatsiya. Arab tilining nafaqat diniy va madaniy, balki siyosiy, iqtisodiy hamda ilmiy ahamiyati ortib borayotgani ta’kidlanadi. Shu nuqtai nazardan, arab tilini o‘qitish metodikasi, o‘quv dasturlari va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash masalalari alohida e’tiborga olinadi. Maqolada mavjud muammolar sifatida o‘qituvchilarning malaka darajasi, darslik va o‘quv qo‘llanmalarining yetarli emasligi, til muhitining cheklanganligi va amaliy nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi kamchiliklar ko‘rsatib o‘tiladi. Shuningdek, talabalar motivatsiyasini oshirish, interaktiv usullardan foydalanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali ta’lim sifatini yaxshilash yo‘llari taklif etiladi. Tadqiqot natijasida arab tilini samarali o‘qitish uchun kompleks yondashuv zarurligi, ya’ni nazariy bilim bilan birga amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish muhim ekani asoslab beriladi. Bundan tashqari, xalqaro tajribani o‘rganish va milliy ta’lim tizimiga moslashtirish masalalari ham muhim ahamiyat kasb etishi qayd etiladi.

Kalit so‘zlar: ta’lim tizimi, lingvistika, kommunikativ yondashuv, pedagogik texnologiyalar, motivatsiya, til muhiti, amaliy ko‘nikma, innovatsiya.

Аннотация. Отмечается, что значение арабского языка возрастает не только в религиозной и культурной, но также в политической, экономической и научной сферах. В этой связи особое внимание уделяется вопросам методики преподавания арабского языка, разработке учебных программ и применению современных педагогических технологий. В статье в качестве существующих проблем выделяются уровень квалификации преподавателей, недостаточность учебников и учебных пособий, ограниченность языковой среды, а также недостатки в развитии практических речевых навыков. Также предлагаются пути повышения качества образования посредством усиления мотивации студентов, использования интерактивных методов и внедрения информационно-коммуникационных технологий. В результате исследования обосновывается необходимость комплексного подхода к эффективному обучению арабскому языку, предполагающего развитие не только теоретических знаний, но и практических навыков. Кроме того, подчеркивается важность изучения международного опыта и его адаптации к национальной системе образования.

Ключевые слова: система образования, лингвистика, коммуникативный подход, педагогические технологии, мотивация, языковая среда, практические навыки, инновации.

Abstract. It is emphasized that the importance of the Arabic language is increasing not only in religious and cultural spheres, but also in political, economic, and scientific contexts. From this perspective, special attention is given to the issues of teaching methodology, curriculum design, and the application of modern pedagogical technologies in teaching Arabic. The article identifies several existing problems, including the insufficient qualification level of teachers, the lack of adequate textbooks and teaching materials, the limited language environment, and shortcomings in developing practical speaking skills. Furthermore, ways to improve the quality of education are proposed, such as increasing student motivation, using interactive methods, and implementing information and communication technologies. The study substantiates the necessity of a comprehensive approach to effective Arabic language teaching, emphasizing the importance of developing practical skills alongside theoretical knowledge. In addition, the importance of studying international experience and adapting it to the national education system is highlighted.

Keywords: education system, linguistics, communicative approach, pedagogical technologies, motivation, language environment, practical skills, innovation.

Kirish. Aksariyat manbalarda qayd etilishiga ko'ra muloqot ehtiyoji til paydo bo'lishining asosidir. Insoniyatning tilga ehtiyoji bugungi kunda har qachongidan ham ortib borayotgani barchamizga yaxshi ma'lum. Mazkur holatning yuzaga kelishi globallashuv davri va uning shart-sharoitlari bilan ham bog'liq ekani ro'yi-rost namoyon bo'lmoqda. Shunday ekan, muayyan bir millat vakillarining faqatgina o'z ona tili bilan kifoyalana olmasligi o'z-o'zidan ma'lum bo'lib bormoqda. Shu bois ham bugungi kunda kishilarning, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodning bir necha tillarni o'rganishga bo'lgan ehtiyoji va ishtiyoqi ortib borayotgani tabiiy holdir. Bu holat O'zbekiston Respublikasining bugungi taraqqiyoti davrida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, O'zbekistonda arab tilini o'rgatishning birinchi va eng muhim maqsadi, bu tilni o'rganuvchilar uchun arab tilida so'zlashuvchilar bilan samarali muloqot qilish imkonini berish ekanligida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili. Tilni o'rganish, o'rgatish bilan bog'liq qarashlar va g'oyalar ayrim Yevropa mamlakatlarida o'tgan asrning 50-yillari boshlarida turli shakllarda o'z yo'nalishiga mos holda fanlar va ta'lim usullari orqali turli ko'rinishlarda paydo bo'ldi. Yevropa davlatlaridan Fransiya, Italiya, Shvetsariya va Kanadada mazkur qarash va g'oyalar psixologiya va psixolingvistika bilan bog'landi.

Ditoktizm (didaktizm) amaliy tilshunoslikning asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, u o'quv dasturlari va ta'lim metodlardagi ishlanmalar tufayli yuzaga kelgan hamda til o'rganishning amaliy sohalarining ko'pligi bois uzluksiz va uzviylikda takomillashayotgan kontekstda mujassam bo'ldi.

Tadqiqotlarni kuzatish natijasi shuni qayd etish imkonini beradiki, unga ko'ra tillarni o'rgatish yaqinda paydo bo'lgan fanlar sirasiga kiradi. Til ta'limining alohida soha sifatida paydo bo'lishi til o'rgatish uslublariga bog'liq bo'lgani bois amaliy tilshunoslik bilan uzviylikda tavsiflangan. Biroq, ma'lum vaqt sinovlaridan so'ng mazkur faoliyatning maqsad va vazifalarini e'tiborga olinishi ta'lim jarayoni bilan bog'liq bo'lgan barcha yangi narsalar bilan shug'ullanishiga yo'l ochdi. Shuning uchun ham til ta'limi sohasi o'z ish ko'rish doirasida ayni faoliyatga doir tarkibiy qismlarni ko'rib chiqadi hamda ularni oldiga qo'yilgan maqsadlarga mos ravishda saralaydi va tartibga soladi. Shunga asosan faoliyatni muvaffaqiyatga olib kelgan jarayondagi usul va vositalarini belgilaydi. Til o'rgatish masalasiga nazar tashlar ekanmiz, soha vakillarining fan va ta'lim, shuningdek, ko'plab ijtimoiy soha va ixtisosliklarga oid keng qamrovli bilim va dunyoqarashga egaligini ko'ramiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot nazariy-tahliliy yondashuv asosida amalga oshirilib, arab tilini o'qitish va o'rganishga oid ilmiy manbalar, pedagogik qarashlar hamda metodik konsepsiyalar qiyosiy va kontent-tahlil asosida o'rganildi. Tadqiqot jarayonida lingvistik, psixolingvistik va kommunikativ yondashuvlar integratsiyasi asosida til ta'limining samaradorligini oshirish omillari tizimlashtirildi. Shuningdek, umumlashtirish va sintez metodlari orqali O'zbekistonda arab tilini o'qitish amaliyotiga mos keluvchi metodik xulosalar ishlab chiqildi.

Tablillar va natijalar. Arab tilini o'qitish tushunchasi ta'lim oluvchilarning ko'zlagan maqsadiga erishishi uchun o'qitish usullari hamda ularning aqliy, hissiy yoki harakat darajasidan qat'iy nazar, o'quv vaziyatlarini tashkil etish va ilmiy o'rganishni nazarda tutishi, shubhasiz. Shuningdek, mazkur jarayon o'qituvchida pedagogik mahoratni takomillashtirish va rivojlantirish bilan bog'liq masalalarga doir tadqiqotlarni ham o'z ichiga qamrab oladi. O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalarida arab tilini o'qitishdan maqsad, o'zbek talabasining lisoniy imkoniyatlarini o'zining maqsadiga muvofiq to'g'ri qo'llashni nazarda tutgan holda o'qituvchi va talaba faoliyatini ta'lim oluvchining til ko'nikmalarining barchasiga birdek erishishiga yo'naltirish orqali, ulardagi til bilish qobiliyatini ro'yobga chiqarish uchun to'g'ri mashq qilish orqali eshitgan, o'qigan ma'lumotlarini tushunishga va o'z fikrlarini og'zaki yoki yozma shaklda boshqalarga yetkaza olishiga erishiladi.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqqan holda qayd etish mumkinki, tadqiqotimizning mohiyatini, ya'ni O'zbekistonda arab tilini qanday o'rgatish, o'rganish haqida izlanish olib borar ekanmiz, til o'rgatish ko'plab ijtimoiy fanlarning kesishuvida namoyon bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki integratsiyalashgan va jamoaviy ishni tilshunoslikning yolg'iz o'zi samarali va bekami-ko'st uddalay olishi qiyin. Shunday ekan, lingvistik psixologiya, lingvistik sotsiologiya ma'lumotlarini ta'lim fanlari va muloqot nazariyalarini o'zida mujassam etgan keng sohaga ehtiyoji paydo bo'ladi. Bu esa, shubhasiz, til ta'limi sohasidir. Ta'lim funksiyasining birinchi vazifasi sifatida nazariy ma'lumotlarni o'rganish, ular o'rtasidagi bog'liqlikni topish va undan qanday foydalanish yo'li bilan moslashtirish imkoniyati mujassamlashganligini ko'ramiz. U o'z vakolatidagi til o'rgatish va o'rganish mavzusi bilan shug'ullanadi. Vazifasidan kelib chiqadigan muammolar o'rganiladigan darajasi bilan cheklanib qolmaydi. Balki o'qituvchi tomonidan e'tiborga olinishi kerak bo'lgan shunday psixologik muammolar ham borki, u o'zining barcha aqliy, psixologik va jismoniy o'lchamlari bilan o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan muayyan jamiyatda yashovchi shaxs bilan muomala qilishga dahldordir.

Bizningcha, tilni o'rgatishda til o'rganuvchining, aniqroq aytganda talabaning, ruhiy-psixologik xarakteristikasini va uning ayni jarayonda mohiyatni anglashda kognitiv imkoniyatlarini aniqlash muhim. Bu borada fikr yuritar ekanmiz, til ta'limidan maqsad, uning nimaga qaratilgani, ushbu maqsadga erishish yo'lida amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarini aniqlab olish asosiy masalalardan ekanini alohida qayd etamiz.

Bunda kim o'qitayapti, nimani o'qitayapti, kimga o'qitayapti, qanday o'qitayapti kabi savollarga javob topishning o'zi o'qitish jarayonining prinsipial asosini belgilab olishga imkon beradi. Boshqacha aytganda, mazkur masalaning hal etilishi muayyan til ta'limida maqsad, vazifa hamda ish ko'rish metodikasini va bu bilan bog'liq holda shakllanishi lozim bo'lgan didaktik material va ta'lim vositalarining qat'iy belgilanishiga asos bo'ladi. Garchi ta'lim jarayoni, ya'ni til o'qitish yaxlit bir butunlikni tashkil etsa ham, uning tarkibiy qismlari mavjud ekani isbot talab qilmaydi, albatta. Shunday ekan, til ta'limida ularning barchasini ushbu katta jarayonning qismlari yoki bo'lmasa uning

tarkibiy tashkil qiluvchilari sifatida qaralishi lozim bo‘ladi. Mazkur qismlar o‘zaro yaxlitlik hosil etishi tufayli til ta’limidagi bosh maqsadning amalga oshishiga xizmat qilar ekan, ularning biri boshqasini to‘ldirishi, o‘z navbatida, umumiy vazifaning bajarilishiga erishishni ham ta’minlaydi. Shunday ekan, ayni jarayonda biror vazifaning bajarilmay qolishi kutilgan samarani bermasligi mumkin. Ko‘rinadiki, til o‘qitishda biz mazkur vazifalarning birortasidan yoki amalga oshirilishi kerak bo‘lgan maqsadning biridan voz kecha olmaymiz. Ularga bo‘lgan ehtiyojni aylanib o‘tishga harakat qilinsa, ma’lum darajadagi kamchilik yoki nomukammallik kelib chiqishi mumkin. Ana shuni hisobga olish til ta’limi jarayoni bilan bog‘liq ko‘plab muammolarni hal qilishda, joyiga qo‘yishda bizga katta yordam beradi va foyda keltiradi. Ta’lim umumiy ko‘rinishda va til ta’limi esa xos ko‘rinishda protsessual tushunchalar majmuasi bilan bog‘liq turli muammolarga duch keladi. Shuning uchun ham bu boradagi izlanishlarga ehtiyoj katta. Qayd etish lozimki, tilni o‘rgatishda faqat shu til unsurlarini o‘rgatish emas, balki inson tili, uning umumiy xususiyatlari haqidagi bilimlarga ham tayanish ijobiy natijalarni beradi.

Bu borada fikr bildirganida, Solih Nusayrot funksional tilshunoslik tilining shakl yoki tuzilishiga qiziqishdan ko‘ra uning vazifasiga qiziqishini, arab tilini o‘qitishni mazkur doiradagi sharoitlardan, ya’ni tarixiy va madaniy aloqalardan ajralgan holda amalga oshirish mumkin emasligini ta’kidlaydi.

Ahmad al-Mutavakkil ushbu masala bobida shunday munosabat bildiradi: “Tillarni lingvistik va funksional jihatdan o‘rganishning asoslaridan biri – bu tabiiy tilni suhbatdoshlar o‘rtasidagi kommunikativ funksiyaga bo‘lgan munosabatini o‘rganishdir. Ya’ni funksional tilshunoslik tilning kommunikativ qobiliyatini aniqlash, uning foydalanuvchilari o‘rtasida muloqot qilish bilan bog‘liq tomonlarini yoritishdan iboratligidir”.

Tabiiyki, til foydalanuvchisi nutq birliklarini yaratishda, boshqacha aytganda til birliklarini nutqqa ko‘chirishda, ularni real nutq maqsadi uchun qo‘llash jarayonida o‘zi bilan suhbatdoshlari o‘rtasidagi muloqotga erishishni maqsad qiladi. Biz tillarni o‘rganishda funksional tilshunoslikning yutuqlaridan bir qismini O‘zbekistonda arab tilini o‘rgatuvchilar va o‘rganuvchilar o‘rtasida kommunikativ aloqalarni o‘rnatishga qaratishimiz ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin, deb hisoblaymiz. Bundan kelib chiqadiki, o‘zining funksional tilshunoslikning ushbu qarashlaridan til ta’limida umumnazariy asos sifatida foydalanish bu borada kutilgan maqsadga erishish uchun zarur bo‘shliqlarni to‘ldirishga xizmat qiladi. Talaba tilni o‘rganar ekan, u o‘zining kelajakdagi maqsadlari, orzu intilishlariga ko‘ra biror tilni o‘rganayotganini his qilishi darkor. Agar shunday bo‘lmas ekan, u holda natijalar kutilganidek bo‘lmasligi ham mumkin. Talabaning til bilishi darajasiga ko‘ra potensial o‘sishi uning o‘z hayotining buguni va ertangi kuni, yaqin va ko‘p bosqichli – uzoq kelajak bilan bog‘liq rejalari va maqsadlarining tarkibiy qismidan mustahkam o‘rin olmog‘i kerak. Bu borada ta’lim beruvchi talabaning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan yuqorida qayd etilgan masalalarga etibor berishi, ularni mashg‘ulotlarning asosiy mazmun-mohiyatiga singdirishi shart

bo'ladi. Til o'rganishda talabalarning ehtiyojlariga qaratilgan, ularning istaklari, maqsadlarining amalga oshishiga xizmat qiluvchi, o'zlarining haqiqiy hayotlarida ularga foydali bo'lgan vazifalarni bajarishda qo'l keluvchi va bu borada ular uchun zaruratga aylangan kommunikativ qobiliyatlarni yuzaga chiqarishga e'tibor berilayotganini til o'rganuvchi sifatida talaba his qilishi muhim hisoblanadi.

Shu xususda fikr bildirganida, Husayn al-Dulaymiy shunday deydi: "Albatta, bu bizni har qanday tilni to'g'ri va uzluksiz o'rganishga olib boradi. Bu talabada har qanday sharoitda o'qish, yozish, so'zlashish va tinglab tushunish kabi to'rta ko'nikmadan to'g'ri foydalanish qobiliyatini shakllantiradi".

Biz bu borada Husayn al-Dulaymiyning fikriga qo'shilamiz, chunki ba'zan o'qituvchilar tomonidan talabalarning til bilishi bo'yicha muhim bo'lgan to'rta asosiy ko'nikmani chetga surib, ularni tilning boshqa sohalariga yo'naltirilayotganining mavjudligini ham inkor eta olmaymiz. Bu esa ko'pchilik talabalarning til o'rganishga bo'lgan ishtiyoqining susayishiga yoki mazkur qiziqishning butunlay so'nishiga ham olib keladi. Chunki ular o'zlari o'rganayotgan va ta'lim olayotgan narsalarning og'irligini his qiladilar. Mazkur jarayonda talabalarni ortiqcha faoliyatga yo'naltirish salbiy oqibatlariga olib kelishini hisobga olishimiz lozim ekanligi dolzarb bo'lib qolmoqda. Nazarimizda, talabalarga til o'rgatishda, avvalo, ularning o'qish, yozish, gapirish va tinglab tushunish ko'nikmalarini o'zlashtirilishiga e'tibor qaratilib, ularning barchasiga muayyan darajada erishganidan so'ng tilshunoslikning sof nazariy materiallarini o'rgatish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu O'zbekistonda xorijiy tillarni o'qitishda e'tiborga olinsa, yaxshi natijalarga olib keluvchi yondashuv bo'lishi mumkin.

Til ta'limida ikkita tushunchani farqlash muhim sanaladi. Ularning har biri chet tilini o'qitish dasturlari tomonidan ko'zlangan maqsadni ifodalaydi. Ularning birinchisi kommunikativ kompetensiya bo'lsa, ikkinchisi lingvistik kompetensiyadir. Bundan ko'zlangan maqsad talabalarga oldingi til tushunchasi asosida o'rgatish mo'ljallangan tilda so'zlovchilar bilan samarali muloqot qilish imkonini beradigan tegishli til ko'nikmalarini ta'minlashdir. Bu tushunchalarning ikkinchisi esa lingvistik kompetensiya bo'lib, unga ko'ra, talabalarga tilning mohiyatini uning hodisalarning tartibga soluvchi va boshqaradigan qoidalarini hamda ularni tavsiflovchi xususiyatlarni va uning tovushlari, lug'at tuzilmalari hamda tushunchalardan iborat tarkibiy qismlarni tushunishga imkon beradigan lingvistik ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan faoliyat ekanini anglatishdir. Ana shu kompetensiyalarning shakllanishi barobarida talabada til o'rganishning barcha muhim jihatlari bosqichma-bosqich, izchillik va uzviylikda shakllantirilib boriladi.

Xulosa. Xulosa o'rnida bir fikrni aytish joizki, O'zbekistonga kelganimdan beri bu yurtning oliy ta'lim muassasalarida arab tilini o'rgatishda har bir konsepsiyaning maqsadlarini bir-biridan ajratmasdan kommunikativ kompetensiyani va lingvistik kompetensiyani shakllantirishdagi faoliyatda men uchun tushunarsiz holatlar borligining guvohi bo'ldim. Bu holat talabalarga ta'lim berilayotganda, auditoriyalarda o'qituvchilarning talabalarga mashg'ulot materiallarini yetkazayotganida, ularni

talabalarga tushuntirayotganida kuzatishimiz mumkin. Qayd etish kerakki, bunda o'qituvchi o'z talabalariga kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan materiallarni alohida, lingvistik kompetensiyani rivojlantiruvchi material va ta'lim resurslarini alohida yetkazilishi kerakligiga ahamiyat qaratmaydi. Bu esa talabalarda mavzuni o'zlashtirishda turli darajadagi qiyinchiliklarni, murakkabliklarni keltirib chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. ص. نصيرات. طرائق تدريس اللغة العربية. – عمان: دار الشروق للنشر والتوزيع، 2006. ص. 25.
2. أ. المتوكل. قضايا اللغة العربية في اللسانيات الوظيفية: البنية التحتية أو التمثيل الدلالي التداولي. – الرباط: دار الأمان، 1995. ص. 4.
3. ط. ح. الدليمي. أساليب حديثة في تدريس قواعد اللغة العربية. – عمان: دار الشروق للنشر والتوزيع، 2004. ص. 56.

